



OLIJ TA'LIM MUASSASASINING O'QUV MEYORIY XUJJATLARINI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI

Abduvaliyev Dilxushbek Dilshodbek o'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, O'quv-uslubiy bo'lim, kechki ta'limni tashkil etish bo'yicha uslubchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kadrlar tayyorlash sifati va ularning raqobatbardoshligini kuchaytirish masalalari atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur tezis mavzusi yuzasidan tegishli ilmiy va rasmiy adabiyotlardagi fikrlar umumlashtirilib, mavjud muammo yuzasidan taklif hamda tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Kadrlar tayyorlash, internet, shaxsiy ma'lumotlar, qonunchilik.

Abstract. In this article, the issues of quality of personnel training and strengthening of their competitiveness are thoroughly analyzed. Also, the opinions of the relevant scientific and official literature on the topic of this thesis are summarized, suggestions and recommendations are given on the existing problem.

Keywords: Personnel training, Internet, personal data, legislation.

Oliy ta'lim muassasasining o'quv meyoriy xujjatlarini rasmiylashtirish shuningdek ular bilan ishlashni to'g'ri tashkil etish hamda arxiv hujjatlarining to'g'ri va belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlash - jamiyatda qonuniylik, huquqiy tartibot va barqarorlikni, jamiyat manfaatlari, fuqarolarning huquq va erkinliklari himoya qilinishini hamda Oliy ta'lim muassasasining normal faoliyatini ta'minlovchi muqarrar shartlardan biri hisoblanadi. Har bir oliy ta'lim muassasasini Davlat tegishli meyoriy-huquqiy hamda uslubiy hujjatlar (ko'rsatmalar, tavsiyalar) qabul qilish yo'li bilan hamda yuqori turuvchi Vazirlik va idoralar faoliyatning mazkur tarmog'ini tartibga soladi [1], chunki boshqaruv mehnatining tezkorligi, ishonchliligi va tejamliligi, ish madaniyati, hujjatlarda qayd etilgan axborotdan kelgusida foydalanish imkoniyati ish yuritish qanday tashkil etilganligi bilan belgilanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida ish yuritishning meyoriy bazasini quyidagi meyoriy hujjatlar tartibga soladi;

Hujjatlar bilan ta'minlash masalalarini respublika darajasida tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari va farmoyishlari;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv faoliyatida hujjatlar bilan ta'minlashni oqilona tashkil etish, tashkiliy texnika va hisoblash texnikasining zamonaviy vositalaridan foydalanib ularni tubdan takomillashtirib raqamlashtirishga



qiziqish ancha kuchaydi. Chunki bozor munosabatlariga o'tish bilan bog'liq tub islohatlar, tabiiyki ta'lim sohasini ham chetlab o'tmadi. Sababi so'ngi yillarda oliy ta'limga qaratilayotgan etibor ya'ni Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni [1] bunga misol bo'la oladi.

Oliy ta'lim muassasasining o'quv meyoriy xujjatlarini raqamlashtirish uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bilamizki raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi muqarrar ravishda jarayonlarga ta'sir qiladi sababi har qanday tashkilotning ish yuritishi, ayniqsa oliy o'quv yurti kabi ko'p qirrali muassasada bu yaqqol ko'zga tashlanadi [2]. Bunday deyishimizdan maqsad shuki har bir oliy ta'lim muassasalarida bir qancha fakultetlar mavjud bo'lib bular o'z navbatida ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligidan kelib chiqib bir nechta kafedralarga bo'linadi. Shuningdek har bitta kafedraning o'zlari kadrlar tayyorlash maqsadida fakultetlar kesimida har o'quv yilida talabalar qabul qiladi va o'qitadi. Bularning barchasini bitta tizimda qamrab olib ularning nazoratini olish uchun albatda raqamlashtirish talab etiladi [3].

Raqamli texnologiyalar bu muammoni hal qilishga yordam beradi. Hozirgi kunda internetga kirishda hech bo'lmaganda eng oddiy smartfonga ega bo'lgan odamlarning ko'pchiligi bor. Bularning barchasini yagona bitta tizimga qamrab shu yerda barcha ishlarini ya'ni professor-o'qituvchilarning tadqiqot sohalari, tegishli hujjatlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, shuningdek, oliy ta'lim muassasasining tashkiliy va boshqaruv faoliyatini yuritish talab etiladi [4].

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga kirib bordi va uning ko'lami kundan-kun kengayib bormoqda. Globallashtirish sharoitida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish nafaqat alohida iqtisodiy tizimlar, balki umumdavlat darajasidagi vazifaga aylandi. Shuni hisobga olgan holda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim va sog'liqni saqlashda zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, muntazam amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari va innovatsion jarayonlarning asosiy vazifalaridan biri raqamlashtirish jarayonining xususiyatlariga to'liq moslashishdan iborat. Jahon miqyosida ta'lim tizimini boshqarishda ijtimoiy institutlarning uzoq muddatli hamkorligini takomillashtirishning ahamiyati tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Kompyuter dasturiga kiritilgan interfeysning qulayligi o'qituvchilarga zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish imkonini beradi.



Shunday qilib, shaxsiylashtirilgan ta'limni rivojlantirish va o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish mumkin. Kompyuter imkoniyatlaridan foydalangan holda ta'lim tizimini raqamlashtirish ta'lim sifatini yanada yaxshilanishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni.
2. Кузин А. В. К89 Базы данных: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / А. В.Кузин, С.В.Левонисова. — 5-е изд., испр. — М. Издательский центр «Академия», 2012. — 320 с.
3. Ульман, Дж. Базы данных на Паскале / Дж. Ульман. - М. Машиностроение, 2017. - 368 с.
4. Белоногов, Г.Г. Автоматизация процессов накопления, поиска и обобщения информации / Г.Г. Белоногов, А.П. Новоселов. - М. Наука, 2017.
5. Alavutdinova, N., & Abdurahmonova, M. Ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish muammolari. O'ZBEKIST, 87.

